Повышение эффективности маркетинговой деятельности издательско-полиграфических компаний..	943
<b>Холмирзаева Феруза Абдуллаевна</b>	



# DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA SOLIQLARNING TA'SIRINI BOSHQARISH

**Maxmudov Anvarjon Maxmudovich**

Farg'ona politexnika instiuti "Menejment" kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqola Davlat organlarining soliq huquqbuzarliklarini kurashga qaratilgan ishlari jismoniy va yuridik shaxslarni yo'l qo'ygan xatolari uchun ta'qib qilish bilan chegaralanib qolib, uning asl sabablarini aniqlash hamda bartaraf etish muammolari hamda ularni bartaraf etish masalalariga qaratilgan. Chunki mazkur muammolar bartaraf etilmasa yangi-yangi xatoliklar, soliq to'lashdan ochish, soliq bazasida daromadlarni to'liq ko'rsatmaslik holatlari vujudga kelishi mumkin bo'lib, buni bartaraf etish, oldini olish yoki bartaraf etish uchun ilmiy jihatdan yondashishni talab etadi.

Huquqbuzarliklar ta'sirida soliq to'lovchilarni soliqlarni yashirishi va soliq to'lovlardan qochishining asl sabablari atroficha tadqiq qilinmagan. Muammolarni dolzarbligidan kelib chiqib, huquqbuzarliklarning iqtisodiyotni, xususan soliq tizimini boshqarishdagi ta'sirini kamaytirishda holatlarning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlarni joriy etish, bunday mexanizmlardan foydalanishning tizimli boshqaruven menejmentini yaratish tadqiqotimizning asosiy mohiyatini tashkil etadi.

**Kalit so'zlar:** soliq boshqaruvi, soliqqa oid huquqbuzarliklar, soliq to'lashdan bo'yin tovslash, soliq solinadigan baza, soliq munosabatlarini boshqarish, qog'ozsiz tovarlar.

**Abstract:** This article focuses on the problems of identifying and eliminating the root causes of the tax violations of the state authorities, as well as the issues of their elimination. Because if these problems are not eliminated, new errors, tax evasion, and cases of incomplete disclosure of income in the tax base may arise, which require a scientific approach to eliminate, prevent, or eliminate.

The root causes of tax evasion and tax evasion by delinquent taxpayers have not been thoroughly researched. Based on the urgency of the problems, the main essence of our research is the introduction of effective mechanisms aimed at reducing the impact of violations on the economy, in particular, the management of the tax system, and the creation of systematic management of the use of such mechanisms.

**Key words:** tax administration, tax offenses, tax evasion, taxable base, tax relationship management, paperless goods.

**Аннотация:** В данной статье основное внимание уделяется проблемам выявления и устранения коренных причин налоговых правонарушений органов государственной власти, а также вопросам их устранения. Потому что если эти проблемы не устранить, могут возникнуть новые ошибки, уклонения от уплаты налогов, случаи неполного раскрытия доходов в налоговой базе, для устранения, предотвращения или устранения которых требуется научный подход.

Коренные причины уклонения от уплаты налогов и уклонения от уплаты налогов недобросовестными налогоплательщиками досконально не исследованы. Исходя из актуальности проблем, основной сутью нашего исследования является внедрение эффективных механизмов, направленных на снижение влияния нарушений на экономику, в частности, управление налоговой системой, а также создание системного управления использованием таких механизмов.

**Ключевые слова:** налоговое администрирование, налоговые правонарушения, уклонение от уплаты налогов, налогооблагаемая база, управление налоговыми отношениями, безбумажные товары.

## KIRISH

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda soliq tizimini yanada takomillashtirish, soliqlarni rag'batlantiruvchi rolini oshirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasidagi iqtisodiyotni rivojlantirish va liberalallashtirish nomli uchinchi ustuvor yo'nalishida soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, tegishli rag'batlantiruvchi choralarни kengaytirish, investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga investitsiyalarni faol jalb qilish kabi muhim vazifalar belgilab berildi.



Shuningdek, mamlakatimiz Prezidenti ta'kidlaganidek: "Barcha biznes toifalari uchun soliq yukini kamaytirish va qulaylashtirish, shu asosda ishlab chiqarishni va soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish zarur" Davlat soliq xizmati organlarini soliq to'lovchilarning biznes-hamkori va maslahatchisi sifatidagi yangi imidjini yaratish orqali xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan idoraga aylantirish, har bir xodim tomonidan "Soliq xizmati - insofli soliq to'lovchilarning ishonchli hamkori" degan maqsadli vazifani so'zsiz bajarish O'zbekiston Respublikasi soliq ma'muriyatichiligi tizimini takomillashtirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanishi belgilangan Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasi to'g'risidagi Farmonda: "iqtisodiyotda soliq yuki darajasini kamaytirish, shuningdek soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo'yicha soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'ttasidagi soliq yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari etib belgilandi".

"O'zbekiston-2030" strategiyasida 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida Fiskal barqarorlikni ta'minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish. Shuningdek, "Yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirish orqali soliq bazasini qo'shimcha kengaytirish imkoniyatidan foydalanish kabi vazifalar belgilangan.

Milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirish va barqarorligini ta'minlashda xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan to'lana digan soliqlar nechog'lik ahamiyatlari bo'lsa, mazkur soliqlarni muntazam, o'z vaqtida va to'liq byudjetga kelib tushishini ta'minlash maqsadida, korxonalarda soliq huquqbazarliklarini sodir etilishin olish ham shu darajada muhimdir. Shuning uchun mazkur mavzu bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirgan holda bu boradagi mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish zarurligi hozirda muhim va dolzarb masalalardan biriga aylangan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI


Mazkur masala yuzasidan xalqaro doiradagi olimlar S. Glinkina, V. Dadalko, V. Esipov, I. Klyamkin, V. Ispravnikov, A. Krilov, A. Korchagin, Yu. Latov, G. Mishin, V. Ovchinskiy, Ye. Panova, Ye. Rumyanseva, R. Satuyev, L. Timofeyev, Yu. Sqganov, N. Chernina, D. Shraer, Yu. Shishnin, P. Xlebnikov, N. Yas'kovalarning ilmiy tadqiqot ishlari mazkur muammolarning yechimlariga qaratilgan.

Shuningdek, soliqqa oid huquqbazarliklar masalalari bilan bog'iq ilmiy izlanishlarni maxalliy iqtisodchi olimlardan A. Vaxobov, E. Gadoyev, I. Jamolov, N. Jo'rayev, A. Isaxodjayev, A. Ortikov, A. Soliyev, B. Toshmurodova, N. Kuzyieva, N. To'xliyev, P. Yo'ldoshev, N. Usmonov, A. O'limasov, Z. Qurbonov, Sh. Toshmatov, A. Shestakov, Q. Yahyoevlar ilmiy ishlarda tadqiq qilingan.

Byudjetga daromadlar tushumining oshishi/kamayishiga umuman quyidagi omillar ta'sir etadi:

- respublika iqtisodiyotining o'sishi;
- so'mning erkin ayrboshlash kursini joriy qilish;
- qimmatbaho va rangli metallarga jahon narxlarining nisbatan yuqoriligi;
- pandemiya vaqtida karantin choralarining joriy etilishi va yengillashtirilishi;
- soliq islohoti;
- soliq ma'muriyatichiligining yangi instrumentlarini joriy etish.

Davlat budjetining umumiyy daromadlaridagi ulushi(%)



O'zbekiston Respublikasi soliq qo'mitasi va Moliya vazirligi ma'lumotlaridan olingan.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada iqtisodiy, mantiqiy, ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, monografik tadqiqot, ma'lumotlarni guruhlash, induksiya va deduksiya hamda statistik tahlil usullaridan foydalananligan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval: Davlat byudjetining 2019-2021-yillardagi ijrosi haqida ma'lumot (mlrd so'm)

	2019-y.		2020-y.		2021-y.		O'sish 2019/21
	Summa	Salmog'i	Summa	Salmog'i	Summa	Salmog'i	%
Davlat byudjeti daromadlari	112 165		132 938		164 681		146,8
shu jumladan:							
1. Bilvosita soliqlar - jami	46 429	41,4	46 428	34,9	56 292	34,2	121,2
2.1 Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS):	33 810	30,1	31 177	23,5	38 439	23,3	113,7
- QQS bo'yicha tushumlar	37 055	33,0	40 224	30,3	52 856	32,1	142,6
- QQS bo'yicha qoplash	-3 245	-2,4	-9 046	-6,8	-14 417	-8,8	444,3
2.2 Aksiz solig'i	10 316	9,2	11 697	8,8	13 088	7,9	126,9
2.3 Bojxona boji	2 303	2,1	3 554	2,7	4 765	2,9	206,9
2. Bevosita soliqlar - jami	31 677	28,2	45 207	34,0	58 930	35,8	186,0
1.1 Foyda solig'i	16 361	14,6	28 712	21,6	38 363	23,3	234,5
1.2 Aylanmadan olinadigan soliq	1 989	1,8	1 354	1,0	1 649	1,0	82,9
1.3 Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	13 327	11,9	15 141	11,4	18 918	11,5	141,9
3. Resurs soliqlari va mol-mulk solig'i	19 681	17,5	21 257	16,0	23 036	14,0	117,1
3.1 Mol-mulk solig'i	2 360	2,1	1 974	1,5	2 457	1,5	104,1
3.2 Yer solig'i	2 313	2,1	2 387	1,8	4 083	2,5	176,5
3.3 Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	14 693	13,1	16 417	12,3	15 812	9,6	107,6
3.4 Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	314	0,3	479	0,4	684	0,4	217,6
4. Boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan tushumlar	14 379	12,8	20 046	15,1	26 423	16,0	183,8

2-jadval: O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti va mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlarning tarkibi

Ko'rsatkichlar	Yillar (mlrd.so'm)					
	2015	2016	2017	2018	2019	2020
Respublika byudjeti daromadlari	36184,9	40505,8	44469,6	62229,5	102627,6	128460,0
Respublika byudjeti xarajatlari	37967,7	42721,3	46943,1	62170,0	107118,4	121856,4
Maxalliy byudjet daromadlari	13394,2	18417,9	19985,7	18026,5	31083,0	30273,9
Ulushi %	37%	45,4%	44,9%	28,9%	30,3%	23,6%
Maxalliy byudjet xarajatlari	16323,3	20820,9	21382,8	25485,5	38846,1	35387,8
Ulushi %	45%	51,4%	48,0%	40,9%	36,2%	29,0%
Yuqori byudjetdan olingan subvensiya (transfert) miqdori	2929,1	2402,9	1397,1	7459,3	7763,1	5113,9
Ulushi%	8%	5,9%	3,1%	11,9%	7,5%	4,0%



**3-jadval:** Mahalliy byudjetga biriktirilgan to'lash muddati uzaytirilgan hamda undirilishi to'xtatilgan soliq qarzdarliklari to'g'risida ma'lumot (mlrd.so'm)

T/r	Hududlar nomi	Farmon asosida to'lash muddati uzaytirilgan		Farmon asosida hisobdan chiqarilgan		Farmon asosida soliq qarzini undirish to'xtatilgan	
		soni	summa	soni	summa	soni	summa
<b>Respublika bo'yicha</b>		<b>3 442</b>	<b>148,4</b>	<b>17 245</b>	<b>29,6</b>	<b>280 745</b>	<b>1 343,9</b>
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	120	2,6	1 138	1,0	13 651	55,0
2	Andijon viloyati	213	11,4	382	0,2	21 891	148,0
3	Buxoro viloyati	207	4,5	751	0,3	18 161	51,5
4	Jizzax viloyati	112	2,5	1 246	0,2	15 814	63,6
5	Qashqadaryo viloyati	367	12,5	2 264	1,1	24 222	211,4
6	Navoiy viloyati	139	1,8	1 474	0,3	14 341	25,1
7	Namangan viloyati	106	4,3	614	0,5	16 939	52,4
8	Samarqand viloyati	395	9,6	2 094	0,9	28 520	111,1
9	Surxondaryo viloyati	235	8,1	1 197	1,1	16 878	74,5
10	Sirdaryo viloyati	82	4,4	939	0,2	10 260	53,6
11	Toshkent viloyati	379	27,0	1 548	3,7	22 591	148,4
12	Farg'onha viloyati	189	6,8	1 344	1,1	25 549	99,5
13	Xorazm viloyati	353	11,6	642	0,0	13 468	44,2
14	Toshkent shahar	452	35,8	1 612	19,0	38 287	176,5
15	Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi	93	5,7	0	0,0	173	28,9

Soliq huquqbazarligin mahalliy byudjet doirasida tahlil qiladigan bo'lsak yer uchastkalarini belgilangan meyorlaridan ortiq holatlarda foydalanishga yo'l qo'yilgan holatlarni kuzatishimiz mumkin bunda soliq huquqbazarliklariga qonundan tashqari iqtisodiy faoliyat doirasi sifatida qarash mumkin, ya'ni bitimlar noqonuniy amalga oshiriladi, huquqiy meyorlar va xo'jalik hayat qoidalariaga amal qilinmaydi. So'ng o'zimiz yaratgan ibrani, ya'ni "pul ko'chishi" ibrasini taklif qilmoqchimiz.

Iqtisodiyotni boshqarishda uchrab turadigan munosabatlar shuni aniqlaydiki, uning qatnashchilari amalga oshirayotgan ishlarini iloji boricha yashiradilar. Bu shaxslar faoliyatning daromad miqdorini soliq xizmati va huquq targ'ibot organlaridan, jamiyatdan sir tutadilar. Bunday holatlarning ko'laminani aniqlash boshqaruv tizimida ancha qiyinchilik tug'diradi.



**4-jadval:** Yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalangan jismoniy shaxslar to'g'risida umumiylumot (mln. so'm)

№	Hudud nomi	Kadastr dasturiy mahsuliga egalik huquqisiz kiritilgan obyektlar	Mazkur obyektlarni o'rghanish davomida aniqlangan holatlar						
			Haqiqatda huquqiy hujjati mavjud bo'lмаган обьектлар		Yer ajratish haqida hujjat mavjud, lekin davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan		Mazkur obyektlarga qo'shimcha hisoblangan soliq summasi		
		soni	yer maydoni (га)	soni	yer maydoni (га)	soni	yer maydoni (га)	soni	yer maydoni (га)
1	Andijon viloyati	253 379	24 246	12 437	1 084	201 021	18 991	213 605	53 417,2
2	Buxoro viloyati	265 492	4 157	205 477	32 433	0	0	206 442	70 948,2
3	Jizzax viloyati	1 571	2 114	429	666	764	1 165	1 123	367,4
4	Qashqdaryo viloyati	517 792	114 352	438 290	103 791	14 506	2 371	455 312	140 383,7
5	Navoiy viloyati	34 161	4 834	1 319	155	18 925	3 591	20 438	3 610,3
6	Namangan viloyati	314 606	33 139	265 838	26 910	18 988	2 265	286 270	84 175,1
7	Samarqand viloyati	462 558	87 223	364 066	70 960	76 600	14 626	440 904	141 205,9
8	Surxondaryo viloyati	339 557	66 474	311 409	62 024	14 429	2 765	328 208	124 819,0
9	Sirdaryo viloyati	36 679	7 507	20 880	3 291	12 296	1 881	35 799	12 166,3
10	Toshkent viloyati	117 846	14 268	75 070	9 762	0	0	79 365	27 359,7
11	Farg'ona viloyati	191 630	24 628	2 044	173	121 078	15 397	123 962	38 000,2
12	Xorazm viloyati	144 725	17 157	26 462	3 042	93 467	11 895	120 622	32 003,2
13	Qoraqalpog'iston Respublikasi	65 714	13 134	52 080	12 455	82	19	52 212	21 982,6
<b>Jami</b>		<b>2 745 710</b>	<b>413 233</b>	<b>1 775 801</b>	<b>326 746</b>	<b>572 156</b>	<b>74 966</b>	<b>2 364 62</b>	<b>750 439,8</b>

4-jadval ma'lumotlari tahlili ko'rsatishicha, 2020-yilda respublikada haqiqatda hujjati mavjud bo'lмаган обьектлар soni 1775801 tani tashkil etib, egallagan yer maydoni 326745 ga tashkil etgan. Shuningdek, yer ajratish haqida hujjati mavjud bo'lgan lekin davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan obyektlar soni 572156 tani va egal-lagan yer maydoni 74966 gani tashkil etmoqda. Buning natijasida jami 2364172 ta yer obyektlariga nisbatan byudjetga qo'shimcha 750438,9 mln.so'm soliq hisoblangan.

Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlar ta'siri.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan yuridik shaxslar faoliyatini tahlil qilganimizda soliq to'lovchilar tomonidan soliq qonunchiligini buzish holatlari ham uchrab turibdi:

O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining bergan ma'lumotiga ko'ra bugungi kunda Respublikasida jami 571890 ta yuridik shaxslar faoliyat ko'rsatmoqda. Shulardan 63162 nafari shu yilning yanvar oyidan avgust oyigacha bo'lgan davrida tashkil etilganlari hisoblanadi, bu umumiylumot songa nisbatan 11 foizni tashkil etadi. Sohalar kesimida tahlil qiladiga bo'lsak eng ko'p yuridik shaxs sifatida faoliyatini ochgan soha savdo sohasiga 23354 (150427 ta) sanoat yo'naliishiga 10240(68894) ta yuridik shaxs faoliyatini boshlaganini bildiradi. Eng oz ochilgan sohalar bu tashish va saqlash hamda axborot aloqa yo'naliishlariga to'g'ri keladi.



Viloyatlar kesimida eng ko'p yuridik shaxs sifatida faoliyatini boshlagan korxonalar Toshkent shahri 11484(98681), Farg'on'a viloyati 5819 (51896), Samarcand viloyati 5916 (54914) hissalariga to'g'ri keladi.

Yakka tartibdag'i tadbirkor sifatida faoliyatini boshlaganlar 2023-yil 1-sentabr holatiga 247505 ta'yil boshidan esa 66448 tan tashkil etadi bu 26.8 foizga shu yilni o'zida o'sish bo'lganidan dalolat beradi. Sohalar kesimini oladiga bo'lsak eng ko'p tadbirkorlikni chakana savdo sohasida faoliyat boshlaganlar tashkil etmoqda 29190 (120444) nafar. Hunarmandchilik sohasi 5009 (24885), Maishiy xizmat ko'rsatish sohasi 7632 (23354), Boshqa faoliyat turlari 24617 (78822) nafar tadbirkor faoliyat yuritmoqda. Soliq rejimlari bo'yicha shularni 82.2 foizi ya'ni 205883 nafari qat'iy belgilangan summada daromad solig'i to'lovchi, 15.9 foizi ya'ni 39469 nafari aylanmadan olinadigan soliq to'lovchi, 0.9 foizi 2159 nafari qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilardir. Eng ko'p ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlar bu Toshkent shahar, Toshkent viloyati, Samarcand viloyati va Farg'on'a viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Davlat organlarining soliq huquqbazarliklari bilan kurashga qaratilgan ishlari jismoniy va yuridik shaxslarning yo'l qo'ygan xatolari uchun ta'qib qilish bilan chegaralanib qolib uning asl sabablarini aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilmagan. Buning natijasida yangi - yangi xatoliklar, soliq to'lashdan qochish, soliq bazasida daromadlarni to'liq ko'rsatmaslik holatlari vujudga kelmoqdaki, buni bartaraf etish, oldini olish yoki bartaraf etish uchun ilmiy jihatdan yondashishni talab etadi.

Huquqbazarliklari ta'sirida soliq to'lovchilar soliqlarni yashirishi va soliq to'lovlaridan qochishning turli yo'llarini qo'llab ko'radian. Muammolarni dolzarbligidan kelib chiqib, huquqbazarliklarning iqtisodiyotni, hususan soliq tizimini boshqarishdagi ta'sirini kamaytirishda holatlarning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlarni joriy etish, bunday mexanizmlardan foydalanishda axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish, dastur taqdim etgan ma'lumotlarni tahlil qilish orqali soliq huquqbazarliklariغا yo'l qo'yilishini asl sabablarini topish va uni bartaraf etish bo'yicha ilmiy yondashilgan fikrlar berilishi talab etiladi. Shu maqsadda soliq tizimida muvaffaqiyat bilan qo'llanilayotgan "Avtokameral" dasturi orqali olingen ma'lumotlarni yillar kesimida tahlil qilib chiqsak.

Tekshiruvdan oldingi tahlil - taqdim etilgan soliq hisobotini va soliq to'lovchining faoliyati to'g'risidagi boshqa axborotni soliq organlari tomonidan axborot tizimlaridan foydalangan holda, soliq to'lovchining ishtirokisiz o'tkaziladigan avtomatlashtirilgan tahlildir.

Soliq organlari kameral soliq tekshiruvi o'tkazilishi boshlanguniga qadar tekshiruvdan oldingi tahlilni o'tkazishi mumkin. (Soliq kodeksi 138-modda)

Tekshiruvdan oldingi tahlil soliq organi rahbarining (rahbar o'rinnbosarining) buyrug'isiz, "Avtokameral" avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali amalga oshiriladi.

Mazkur tizimda joriy qilingan mezonlar mantiqiy shartlar va algoritmlar asosida, tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etilgan soliq va moliyaviy hisobotlarda keltirilgan ko'rsatkichlar bilan soliq organlarida mavjud ma'lumotlarni (jumladan, elektron hisobvaraq-faktura, eksport-import operatsiyalari, onlayn kassa texnikasi cheklari va h.k.) avtomatlashtirilgan tartibda taqqoslaysidi.

Agar tekshiruvdan oldingi tahlil chog'ida soliq organi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotida soliq organida mavjud bo'lgan ma'lumotlar bilan tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlansa, soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga soliq hisobotiga tegishli tuzatishlar kiritish to'g'risida xabarnoma yuboriladi.

Soliq to'lovchi tegishli tuzatishlar kiritish to'g'risidagi xabarnomani olgan kundan e'tiboran 10 kunlik muddatda aniqlashtirilgan soliq hisobotini yoki aniqlangan tafovutlarning asosnomasini taqdim etishi shart. Bunday majburiyatning bajarilmaganligi soliq organi tomonidan soliq to'lovchida kameral soliq tekshiruvini tayinlash uchun asos bo'ladi.

Tekshiruvdan oldingi tahlil aniqlashtirilgan soliq hisoboti yoki aniqlangan tafovutlar asosnomasi soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan yoxud kameral soliq tekshiruvi tayinlangan sanadan e'tiboran yakunlangan hisoblanadi.

Ushbu avtomatlashtirilgan tizimning joriy qilinishi soliq to'lovchilarga bir qator afzalliklar yaratadi. Jumladan:

- Soliqlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda hisoblanishi hamda to'lanishini ta'minlashda ko'maklashadi;
- Ularning faoliyatida yuzaga kelgan soliqqa oid huquqbazarliklarni mustaqil ravishda bartaraf etish imkonini beradi;
- Ularga nisbatan qo'llanishi mumkin bo'lgan moliyaviy jarimalar, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik choralarining oldi olinishini ta'minlashga xizmat qiladi;
- Ularning faoliyatiga asossiz aralashish va korrupsiya holatlarini cheklash hamda ma'muriy bosimlarni kamaytirishga imkoniyat beradi.

2022-yilda soliq to'lovchilar hisobotlarida 90,7 trln so'mdan ortiq tafovutlar aniqlandi

Soliq to'lovchilarda 2022-yilda o'tkazilgan tekshiruvdan oldingi tahlillar natijasida 90,7 trln so'mlik tafovutlar aniqlandi.



Shundan, 76,7 trln so‘mlik tafovutlar yoki jami aniqlangan tafovutlarning 84,5%i bartaraf etilgan:

- 4,1 trln so‘m qo‘sishimcha soliqlar hisoblangan;
- 72,6 trln so‘m tafovut bo‘yicha hisobotlardagi ko‘rsatkichlar tuzatilgan.

2023-yil yanvar-avgust oylari davomida o‘tkazilgan tekshiruvdan oldingi tahlillar natijasida 89 136 ta korxona tomonidan ko‘paytirishga qayta hisobotlar taqdim etilgan va 5,9 trln so‘m soliqlar hisoblangan.

Eng katta tafovut aniqlangan sohalar :

- ishlab chiqarish - 3 trln so‘m (51,2%);
- umumi ovqatlanish va savdo - 861,1 mlrd so‘m (14,5%);
- qurilish - 849,2 mlrd so‘m (14,3%);
- transport - 207,9 mlrd so‘m (3,5%);;
- qishloq xo‘jaligi - 172,1 mlrd so‘m (2,9%);.

Soliq huquqbazarliklari oldini olishda soliq to‘lovchilardan kelib tushayotgan murojaatlarni alohida takidlash lozim, 2023-yil 1-sentabr holatiga e’tiborimizni qaratsak 84786 marotaba murojaat bo‘lib shu murojaatlarni 99.5 foizda soliq huquqbazarliklari o‘z tasdig‘ini topganligini ko‘ramiz. Asosan qaysi sohalarda bu kabi qoida buzilishlar aniqlangan:

- xaridorlarga savdo chekini bermaslik-93.4 foizni tashkil qiladi;
- to‘lovlarни plastik karta orqali qabul qilmaslik holatlari 3.9 foizni;
- plastik karta uchun xarid summasini oshirish holati-0.2 foizni;
- boshqa holatlarda soliq huquqbazarliklari sodir etish- 2.4 foizni tashkil etmoqda.

Bu ko‘rsatkichlarni viloyatlar kesimida tahlil qilsak, kelib tushgan murojaatlarni va shu asosda to‘langan mukofotlarni asosan Toshkent shahri, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Navoiy viloyatlar amalga oshigani haqiqat bo‘lib qolmoqda.

Soliq to‘lovchilarni soliqlarga qay tarzda amal qilishlari tahliliga qaraydigan bo‘lsak 2022-yili jami 866 marotaba soliq auditni o‘tkazilgan bo‘lib bu soliq to‘lovchilarga nisbatan 0.15 foizni tashkil qiladi.

2023-yilni 8 oyida esa atiga 679 ta subyektda tekshirish o‘tkazilgan bo‘lib bu ko‘satkich 0.1 foizni tashkil etadi. Shu ko‘rsatkich past bo‘lishiga qaramay 223 nafar subyektda 1.2 trl so‘m soliq summasini yashirish holatlari aniqlangan. Bular:

- 138 ta yuridik shaxsda 697.2 mld.so‘mlik realizatsiya qilingan tovarlar summasini ko‘rsatmaslik;
- 63 ta yuridik shaxsda 489.4 mld.so‘mlik tovarlarni omborlarda yoki realizatsiya mavjud emasligi;
- 22 ta yuridik shaxsda 23.9 mld.so‘mlik kirim qilinmagan tovarlarni saqlaganlik holatlari aniqlangan. Bu ko‘rsatkichlar asosan ishlab chiqarish, qurilish, savdo va boshqa sohalar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Yuqorida tahlillar shuni ko‘rsatadiki 0.1 foizli tekshirish o‘tkazilganda 1.2 trl so‘mlik soliq qoida buzarligi aniqlangan bo‘lsa, tekshirish soni ortib borishi bilan soliqni yashirish, turli yo‘llar bilan soliqdan qochish holatlari yaqqol ko‘zgan tashlanib qolishi mumkin

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Soliq reformasini opponentlari fikricha soliqni kamaytirish byudjetga salbiy ta’sir ko‘rsatar emish. Afsuski ular bilmaydilar-ki, yuqori soliqlar mavjudligi uchun byudjet bo‘sh. Soliqdan boshqa g‘aznani to‘ldiruvchi manbalar ham bor-ku?!

Mulkni xususiylashtirishga juda katta qiziqish bilan qaraldi, afsuski bu ham o‘z vaqtida invistitsiyalarni jalb etilishiga va ijtimoiy muamolarni yechish hamda moliyaviy barqarorlikka olib kelmadidi. Lekin hozirda pullik xususiylashtirishga investitsiyani jalb qilgan holda o‘tishni imkonli bor. Buni qaerda olish kerak? Albatta qonunlashtirilgan yashirin manbalardan.

- biznes uchun xos bo‘lgan qonunchilik sharoitlarini yaratish;
- jinoyat orqali hosil qilingan kapital va yashirin ishlab chiqaruvchilar kapitali o‘rtasida aniq chegarani belgilash;



- tadbirkorlarga shu jumladan chet ellardagi “qallob”larga nisbatan yangicha munosabatni shakllantirish;
- soliqlarni fiksal turlaridan voz kechish;
- har tomonlama naqd pulsiz hisob-kitoblarni rag’batlantirish;
- hokimiyatga bo’lgan ishonchni yanada mustahkamlash, qaysiki, aholini moliyaviy ko’zbo’yamachiliklar oqibatida aldanishdan qo’riqlash, omonatlarini qo’riqlash hamda xususiy mulkchilik institatlarni qo’riqlash.

Xo’jalik subyektlari faoliyati yuzasidan jamoatchilik nazoratini o’rnatish.

Jahon iqtisodiy hamjihatligi tomonidan tan olinganki, eng ko’p biznesga xavf soladigan sohalarda biri - bank sistemasi orqali yirik miqdordagi pul mablag’larini aylantirish va pullarni yuvish bo’lib qolmoqda. Jinoiy elementlar o’z faoliyatida bank ma’lumotlari boshqalar uchun maxfiyligidan foydalanmoqdalar. Uzoq muddat davomidagi bank siri Hozirgi kunda aks holat keltirib chiqarmoqda.

Yirik miqdordagi pul mablag’lari davlat va jamoatchilik nazoratiga olinsa uyushgan jinoyatchilik o’z kuchidan ayrilgan bo’ladi.

Ushbu keltirilgan ma’lumotlar yashirin iqtisod to’g’risida tushuncha beradi, lekin, shu ma’lumotlarni o’zi ham hayotimizga yashirin iqtisod qanday ta’sir ko’rsatayotganligini bilib olishga imkon beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.10.2020 yildagi PF-6098-son “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo’yicha tashkiliy chora-tadbirlar to’g’risida”gi Farmon.
2. N. Toshmamatov, X. Kamolov, I Nosirov, S. Toshmamatov. Audit. O’quv qo’llanma.– Andijon – 2018. – 300 b.
3. N.A. Yangiboyev, D.Q.Qudbiyev va boshq. Soliq xizmati organlarida buxgalteriya xisobi. T. 2023 y.
4. Nosirov I.A.The role of the ecological management on the developing of small business. Theoretical & Applied Science., 2017g.
5. Носиров И.А. Влияние научно-технического прогресса в эффективном использовании ресурсов. ЛИ Республики Узбекистан. Вестник Республики Каракалпакстан. 2016 г.
6. I.Ismakov, N.Toshmamatov, S.Buzrukxonov. Moliyaviy hisobot. Darslik. Toshkent. “Sano-standart”-2019-yil.
7. Носиров И. А. Совершенствование учета и анализа затрат хлопкоперерабатывающих предприятий (на примере кооперативных хозяйств Ферганской долины) .Монография. 1998 г.
8. Ерматов И. Т. Научно-технический прогресс: социальные, технические и общественные факторы : Сборник статей. – Москва : ООО “ИМПУЛЬС”, 2018. – С. 133-137. – ЭДНХТАЛБЖ.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



#### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.